

**Abdullayeva Rufina Usman qizi**  
**Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti,**  
**o‘zbek filologiyasi fakulteti**  
**3-kurs talabasi**

---

## **“QURBONI JAHOLAT” HIKOYASIDA FOJIAVIYLIK VA DAVR MASALASI**

**Annotatsiya:** Ma’lumki Cho’lpon nosir sifatida ham adabiyotimiz tarixida alohida o‘rin tutadi. Cho’lpon nasriy asarlarining badiiyati, janr xususiyatlari o‘ziga xosdir. Uning hikoyalari yangi davr o‘zbek nasri rivojiga salmoqli hissa bo‘lib qo‘shildi. Ushbu maqolada Cho’lponning “Qurboni jaholat” hikoyasidagi fojiaiy taqdir va davr masalasi haqida so‘z boradi.

**Kalit so‘zlar:** Jaholat, fojia, ma’rifatsizlik, gazeta, millat.

**Abstract:** It is known that Cholpon has a special place in the history of our literature as a writer. The artistry and genre features of Cholpon's prose works are unique. His stories made a significant contribution to the development of modern Uzbek prose. This article talks about the issue of tragic fate and era in Cholpon's story "The Victim of Ignorance".

**Key words:** Ignorance, tragedy, lack of enlightenment, newspaper, nation.

---

Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li Cho’lpon XX asr o‘zbek adabiyotining eng mashhur namoyandalaridan biri hisoblanadi. Uning hayoti va ijodiy faoliyati adabiyotimizning eng yorqin sahifalaridan birini tashkil qiladi. U badiiy ijodning deyarli hamma turi bilan faol shug‘ullandi. Jumladan, she’r, hikoya, roman, drama, tanqid, tarjima — hammasida ijod etdi.

Mutaxassislarining aniqlashlaricha, “Sadoyi Turkiston”ning 1914-yil 29-aprel sonida chop etilgan “Qurboni jaholat” hikoyasi Cho’lponning birinchi nasriy asaridir. Ushbu hikoya adibning uch jildlik to‘plamining 2-jildiga ham kiritilgan.

“Qurboni jaholat” hikoyasi bosh qahramoni Eshmurod va uning taqdirini falokatli yakun topishiga sabab bo‘lgan jaholat, ilmsizlik edi. U o‘qimishli yigit, lekin uning atrofida esa ma’rifat nimaligini bilmaydigan johillar bor edi. Hammayoqda ma’rifatsizlik, jaholat. Xatto o‘z otasi uni gazeta uqigani uchun masxara qiladi. Maktab, ilm-fan, ibrat olish degan gaplarga millatning toqati yo‘q. Eshmurodga shu tashvishlar tinchlik bermadi. Biz hikoyani o‘qir ekanmiz, bir qancha detallarga duch kelamiz. Ulardan biri soat detalidir. Hayotida shunday bir voqea yuz beradi-yu uning taqdiri ostin-ustun bo‘lib ketadi. Eshmurodlarnikiga uning yoshlikdagi tanishlaridan biri Mo‘minjon keladi. Eshmurodni chalg‘itib hech narsa qilmaganday otasining soatini o‘g‘rilab ketadi. Otasiga esa yaqin do‘sti Nazarali so‘fi sovg‘a qilgan edi. Mo‘minjon ketishi bilan otasi va Nazarali so‘fi kelishadi. Gap aylanib soatga kelib taqaladi-yu, uning yo‘qolgani ma’lum bo‘lib qoladi. So‘fini oldida xijolat bo‘lgan ota o‘g‘liga shunchaki gapirib qo‘ymay kaltaklaydi. Eshmurod nomus kuchidan yotib qoladi. Bir oycha yotib, bir oz tuzalgach, qo‘shnisi mingboshinikiga chiqib, gazeta o‘qib o‘tirganda yana shunday voqea yuz beradi. Mingboshi uni gazeta o‘qitish uchun mehmonxonasiga taklif qiladi. Yosh bolalardan biri bu gal mingboshining qoziqqa osib qo‘yilgan tilla soatini o‘g‘iraydi va yana kaltak Eshmurodning boshida sinadi. Shu tariqa mirshablar kelib, uni asir qilmoqchi bo‘lishadi. Hayotida qayta-qayta tuhmatlarga qolib oxiri chiday olmagan Eshmurod o‘zini nobud kiladi. Ko‘p o‘tmay tekshirishlar chog‘ida o‘g‘ri topiladi, afsus va nadomatlar bo‘lsinki vaqtni ortga qaytarib Eshmurodni saqlab qolib bo‘lmas edi. Shu zaylda Eshmurod jaholat qurboniga aylanadi. Asar badiiy jihatdan

dramaga yaqinligini ko'rishimiz mumkin. Dastlabki hikoyasidayoq o'sha davrdagi hayotni, bo'layotgan voqealarni fojia tarzida ochib bergan.

“Qurboni jaholat” hikoyasida ikki xil voqeani qarshilantirish orqali o'quvchiga ta'sir o'tkazishga harakat qiladi. Bunda Eshmurod hamda Mo'minjon obrazlarini o'zaro solishtiradi. Mo'minjonga o'xshash jaholat botqog'iga botgan insonlarni ma'rifatlantirish jamiyatning asosiy muammosi ekanligini tasvirlaydi. Madrasa talabasi Mo'minjonning gap-so'zlari ham muallifni o'ylantirib kelayotgan muammolarni taqdim etish uchun “ayttiriladi”. Fikrimizcha, Cho'lponning muhim ijtimoiy muammolarni bir vaqtning o'zida ham publitsistik, ham nasriy, ham she'riy asarlarida ko'tarayotgani millatni uyg'otish g'oyalari bilan izohlanadi.

Millat bolalarining adabiyotga oshno tutinishini istagan Cho'lpon “Adabiyot nadir?” maqolasida adabiyot haqida shunday deydi: “Hech to'xtamasdan harakat qilub turg'on vujudimizga, tanimizga suv-havo ne qadar zarur bo'lsa, maishat yo'lida har xil qora kirlar ila kirlangan ruhimiz uchun ham shul qadar adabiyot kerakdir. Adabiyot yashasa — millat yashar. Adabiyoti o'lmag'on va adabiyotining taraqqiysiga chalishmagan va adiblar yetishdirmag'on millat oxiri bir kun hissiyotdan, o'ydandan, fikrdan mahrum qolub, sekin-sekin inqiroz bo'lur. Muni inkor qilib bo'lmas. Inkor qilg'on millat o'zini inqirozda ekanun bildirur”.

Hikoyaning bosh qahramoni jaholat va ma'rifatsizlik qurboni bo'ldi va yana bir achinarli jihati, uni bu ahvolga solgan kimsalar notanish insonlar emas, balki o'z yaqinlari edi. Shuningdek, Eshmurod o'z davrining mavjud tuzum va qoidalaridan xalos bo'lishga harakat qilgan va qaysidir ma'noda bunga erishgan inson edi

Yuqoridagi fikrlardan shunday xulosa chiqadi, Cho'lpon qalamiga mansub hikoyalarning deyarli barchasida o'zi yashagan davrning eng dolzarb muammolari yoritilgan. Shuningdek, qo'lanilgan detallar orqali XX asr hayoti va unda mavjud bir qator konfliktlar yoritib berilgan. Cho'lpon adabiyot maydoniga madrasa tahsilini, rus-tuzem maktabi saboqlarini olib kirib kelgandi. Adibni yaqindan bilgan zamondoshlari uning yoshlik yillari o'z ustida qattiq ishlagani, juda ko'p mutolaa qilganini eslashadi. Fikrimizcha, Cho'lpon faqat ijtimoiy-siyosiy yoxud badiiy asarlar o'qish bilangina cheklanmasdan, adabiyotshunoslikka oid asarlar bilan ham tanishganini anglash qiyin emas. Cho'lpon o'z hikoya, roman, dramalari orqali o'sha davrdagi hayotni yoritib berganligini ko'rishimiz mumkin.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Boboyev T. (2002). Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent: O'zbekiston.
2. Cho'lpon. (1994). Asarlar II jild – Toshkent: Adabiy-badiiy nashr.
3. Qosimov B , Yusupov Sh , Dolimov U , Rizayev Sh , Ahmedov S. (2004). Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti.–Toshkent: Ma'naviyat.
4. Quronov D. (2004). Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent: A. Qodiriy.
5. Quronov D. (2004). Cho'lpon nasri poetikasi. – T.: Sharq.
6. <https://www.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/abdulhamid-cho-lpon-1897-1938/abdulhamid-cho-lpon-qurboni-jaholat-hikoya>